

NODIM NAMANGONIY (1844-1910)

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi

Adabiyot bo'limi mudiri: **N.Mo'minova**



Annotatsiya

Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Nodim Namangoniyning hayoti, ilmiy-ma'rifiy faoliyati, adabiy merosi hamda uning nomi bilan bog'liq tarixiy-madaniy maskan – Nodim Namangoniyy maqbarasining vujudga kelish tarixi va me'moriy xususiyatlari tadqiq etilgan. Maqolada shoirning ta'lim olgan muhiti, arab va fors tillarini mukammal egallashi, Sharq mamlakatlariga qilgan sayohatlari, zamondosh ijodkorlar bilan adabiy aloqalari hamda g'azal, muxammas, taxmis va hajviy asarlaridagi badiiy-estetik qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, 2004-yilda shoir dafn etilgan hududda barpo etilgan maqbaraning istiqlol davrida milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklash, tarixiy xotirani asrash va buyuk ajdodlar merosini e'zozlash yo'lidagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijasida Nodim Namangoniyy maqbarasi nafaqat me'moriy obida, balki adabiy merosni targ'ib etuvchi, ma'naviy tarbiya

va ziyorat turizmini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim madaniy maskan ekanligi ilmiy dalillar asosida asoslab beriladi.

Nodim Namangoniy maqbarasi 2004 yilda shoir tugilib o`sgan joyda va u dafn etilgan istiqloq yillarigacha qabriston bo`lgan hududda shoirga ehtirom tarzida majmua qilib barpo etilgan. Bu ziyoratgoh Nodira ko`chasida joylashgan Namangan shahrining Chor go`riston mavzesida bunyod etilgan. Nodim Namangoniy maqbarasi me`moriy obida sifatida katta ahamiyatga ega.

Nodim Namangoniy 1844-yilda Namangan shahrining eski Jom'e, hozirgi Baynalminal mahallasida tug'ilgan, Sulaymonxon To'ra Ulug'xon to'ra o'g'li Nodim Namangoniy ziyoli oilada dunyoga kelgan. Uning otasi Ulug'xon to'ra Zokirxon to'ra o'gli, Namangandagi Sayidqulibek madrasasida muddarislik qilgan. Adabiyotga havasmand, she'riy ijod bilan shug'ullangan inson edi.

Ulug'xon to'ra o'z o'g'linin o'qimishli bo'lishini istardi va shuning uchun uni jua erta xat-savodli qiladi, o'zi ta'lim beradi. Yosh Sulaymondan adabiyotga qiziqish va badiiy zavq uyg'otgan ham shu otaning o'zi boladi.

Saidqulibek madrasasida tahsil ko'rgan. Arab, fors tillarini o'rgangan. Qo'qon va Toshkentda bo'lgan, fan-texnika yangiliklari, rus madaniyati, adabiy va madaniy doiralari bilan yaqindan tanishgan. Buxoro, Samarqand (1899), Turkiya, Misr, Arabiston (1902-1903) ga sayohat qilgan. Navoiydan o'rgangan, g'azallariga taxmis, naziralar yozgan. Muqimiy, Muhyi, Furqat, Zavqiy, Muhayyir, Shavqiy kabi shoirlar bilan yaqin do'st bo'lib, ijodiy hamkorlik qilgan, ular she'rlariga muxammaslar bog'lagan. Mumtoz she'riyatning barcha janrlarida, turkiy va forsiyda ijod qilgan. G'azallarida inson go'zalligi, muhabbat va vafo, ayollar erkini kuylagan («Sog'indim men, sog'indingmi?», «Maktubi muhabbat uslub» va boshqa), ona-Vatan tabiati, uning go'zalligini tarannum etgan, xalq hayotini realistik aks ettirgan, ijtimoiy illatlarni fosh etgan, ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surgan «Bahor ayyomi keldi», «Davri javridin...», «Bayoni dar safari Toshkent» va boshqalar. «Shikoyati paxta» she'rida qishloq mehnatkashlarining achinarli hayotini tasvirlagan.

Hajviy asarlarida maqtanchoq, mutakabbir boylar, chor amaldorlari tanqid qilingan «Dar mazammati zamona», «Dar shikoyati qozi» kabi). Yumoristik asarlar yozgan «Bezgak» va boshqalardir.

Nodim Namangoniy yarim asrdan ortiq davom etgan adabiy faoliyati davrida barakali ijod etdi.

1902-yilda N. Namangoniy muborak haj safari ziyoratiga boradi.

U 1910-yil 26-iyulda vafot etadi va uni otasining yoniga dafn etishadi. Nodim Namangoniy she'rlari «Turkiston viloyatining gazetasi»da bosilgan. O'zi tuzgan «Bayozi Nodim»ning mukammal nusxasi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. **Yangi O'zbekiston strategiyasi.** – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. O'zbekiston 1 p Karimov I.A. **Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.** – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
3. **O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.** 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston milli